

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA MEDIATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MODEL VA METODIK ASOSLARI

Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

dilbarxon632@gmail.com

+998976253888

Kommunikativ yondashuv asosida mediatorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Mediatsiya tushunchasi, ta’lim jarayonidagi nizolar tabiatining o‘ziga xos jihatlari, o‘qituvchining mediativ kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari va o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan modelning tarkibiy tuzilmasi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediator, mediativ kompetensiya, kommunikativ yondashuv, pedagogik muloqot, konfliktologiya, hamkorlik pedagogikasi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchidan nafaqat o‘z fani bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lish, balki insoniy munosabatlarni boshqarish, konstruktiv muloqotni tashkil etish, nizoli vaziyatlarda vaziyatga nisbatan betaraf pozitsiyani saqlay olish hamda tomonlarni o‘zaro kelishuvga yo‘naltirish kabi kasbiy kompetensiyalar talab qilinmoqda. Ta’lim muassasalarida turli ijtimoiy, madaniy, psixologik omillar ta’siri ostida konfliktlar soni va ko‘lami ortib borayotgani ushbu jarayonni o‘qituvchining mediatorlik faoliyati orqali boshqarishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu bois bo‘ljak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini ilmiy-nazariy asoslar, amaliy mexanizmlar va metodik yondashuvlar asosida tashkil etish bugungi kunda ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Mediatorlik faoliyatiga tayyorlangan o‘qituvchi shaxslararo munosabatlarni boshqarish, nizoning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va sog‘lom pedagogik hamkorlik muhitini shakllantirishda yetakchi rolni bajaradi.

“Mediatorlik” atamasi o‘z ildizini lotin tilidagi “mediare” so‘zidan olgan bo‘lib, uning mazmuni vositachilik qilish, yarashtirish, kelishuvga olib kelish ma’nolarini anglatadi. Pedagogik jarayonda ushbu tushuncha nizolashayotgan yoki qarama-qarshi pozitsiyada turgan shaxslar o‘rtasida xolis, adolatli va neytral muloqot maydonini yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat sifatida talqin qilinadi. Mediatorlik jarayonining mohiyati shundaki, o‘qituvchi yoki muassasa vakili nizoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qiluvchi hakam sifatida emas, balki tomonlar o‘zaro fikr almashishi, bir-birini eshitishi va o‘zaro maqbul qarorga kelishiga ko‘maklashuvchi vositachi sifatida faoliyat yuritadi.

Tadqiqotchilar tomonidan mediatsiya ta’lim jarayonida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, shaxsiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish va o‘quv guruhida sog‘lom psixologik iqlimni shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida ko‘riladi. Jumladan, J.Hattie mediatsiyani o‘quvchilarning psixologik holati va o‘zini anglash darajasiga ijobiy ta’sir etuvchi ta’limiy omil sifatida, R.Fisher esa uni nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etishning samarali usuli sifatida tavsiflaydi. A.Bandura mediatsiya jarayonini ijtimoiy o‘rganish

nazariyasi bilan bog‘lab, shaxslar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro harakatlar inson xulq-atvorining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. S.Rubin esa mediatsiyani konfliktlarning chuqurlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ziddiyatning ildizini aniqlash hamda tomonlarni o‘zaro maqbul yechim topishga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik amaliyot sifatida ko‘rsatadi. Shu bois mediatsiya nafaqat nizoni bartaraf etish vositasi, balki ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish, ijtimoiy-emotsional barqarorlikni ta’minlash va tahsil oluvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishga yordam beruvchi tizimli pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Mediatorlik faoliyatini samarali amalga oshirish, o‘z navbatida, o‘qituvchidan psixologik tayyorgarlik, muloqot texnikalarini bilish, vaziyatni tahlil qila olish, teng va xolis pozitsiyani saqlay olish kabi kasbiy kompetensiyalarni talab etadi.

Mediatsiya jarayoni o‘qituvchidan: vaziyatni xolis tahlil qilish; tomonlarning manfaatlarini teng asosda ko‘ra olish; hissiy-irodaviy holatni nazorat qilish; muloqot strategiyalarini maqsadga muvofiq qo‘llash kabi kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglarda mediativ kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Bular jumlasiga:

1. Kommunikativ kompetensiya – samarali muloqotni tashkil eta olish, faol tinglash, muzokara yuritish va kelishuv strategiyalarini qo‘llay olish.
2. Emosional-intellektual kompetensiya – empatiya, o‘z va boshqalar hissiy holatini anglash hamda boshqarish.
3. Analitik kompetensiya – nizolarning pedagogik-psixologik sabablarini aniqlash, holatni modellashtirish va oqilona yechim ishlab chiqish.
4. Etika va deontologiya kompetensiyasi – betaraflik, adolat, madaniyatli muloqot va hurmat tamoyillariga amal qilish.

Bo‘lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ yondashuv alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida muloqotni shaxs qadriyati, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan holda yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi: muloqot madaniyatini ongli tarzda boshqara oladi; nizoli vaziyatlarga konstruktiv yondashadi; hamkorlik asosida qaror qabul qiladi; dialogik fikrlash va murosaga kela olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki ta’lim muhitida muloqotni uyg‘unlashtiruvchi, nizolarni bartaraf etishga ko‘maklashuvchi vositachi-mediator sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagog kadrlarni mediatorlikka tayyorlash quyidagi tarkibiy elementlardan iborat model asosida amalga oshiriladi:

Maqsad: mediativ kompetensiyaga ega, kommunikativ jihatdan yetuk, kasbiy madaniyati shakllangan pedagog shaxsini tarbiyalash.

Tamoyillar: hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, dialogga asoslangan muloqot, empatiya.

Bosqichlar: *bilish bosqichi* – mediatsiya nazariy asoslarini o‘rganish; *amaliy bosqich* – trening mashg‘ulotlari, rol o‘yinlari, nizoli vaziyatlarni modellashtirish; *refleksiya bosqichi* – o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

Metodlar: keys-stadi, rol o‘yinlari, “Nizo xaritasi” metodi, “Faol tinglash” texnikalari, muhokama va guruhiiy tahlil.

Natija: nizoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladigan, betaraf mediatorlik pozitsiyasini egallagan professional pedagog shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarni kommunikativ yondashuv asosida mediatorlik faoliyatiga tayyorlash ularning kasbiy shakllanishida muhim omillardan biridir. Mediativ kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim jarayonidagi ziddiyatlarni konstruktiv hal etadi, sog‘lom muloqot muhitini shakllantiradi va o‘quvchilar shaxsini ijtimoiy-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Taklif etilgan model mazkur jarayonni tizimli tashkil etish, amaliyotga samarali tatbiq etish hamda pedagogning kasbiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 b.
2. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 b.
3. Fisher R., Ury W., Patton B. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. – New York: Penguin Books, 2011. – 240 b.
4. Rubin J., Pruitt D., Kim S. Social Conflict: Escalation, Stalemate, and Settlement. – New York: McGraw-Hill, 1994. – 368 b.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 352 b.
6. Ziyomuhamedov B., To‘lxojayev A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 240 b.
7. Xolbekov X., Yo‘ldoshev J. Pedagogik konfliktologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 182 b.
8. Sh. Ishmuhamedov, R. Mavlonova, A. Abduqodirov. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 256 b.